3-SINF O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA HIKOYA JANRIGA XOS METALLAR USTIDA ISHLASH IMKONIYATLARI

Rakhimjonova Lobar
GulDPI “Boshlang‘ich ta’lim” yo‘nalishi 16-22 guruh talabasi
Namozova Odina
GulDPI “Boshlang‘ich ta’lim” yo‘nalishi 16-22 guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu tezisda 3-sinf o‘qish savodxonligi darslarida hikoya janriga xos metallar haqida bayon etilgan. Shuningdek, bolalar hikoya janri bilan yangi tanishish jarayonida bo‘lgani uchun ,ularga hikoyani tushuntirish va ushbu janrda ishlashni osonlashtirish uchun turli xil metodlar haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich sinf, hikoya , darslik, mantiqiy fikrlash, islohotlar, ta’lim va tarbiya.

Abstract: In this thesis, in the 3rd grade reading literacy lessons, it is described about the metals specific to the narrative genre. Also, since children are in the process of getting to know the story genre, they are given information about various methods to explain the story and facilitate work in this genre.

Key words: elementary school, story, textbook, logical thinking, reforms, education and training.

3- sinf o‘quvchilari o‘qish savodxonligi darslarida yangi bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtiradigan davrda bo‘lishadi. Ayniqsa, hikoya janri ular uchun qiziqarli va ijodiy imkoniyatlar dunyosini ochadi. Hikoya o‘qish va yozish darslari orqali bolalar voqealarni ko‘z oldiga keltirishni, qahramonlarning his-tuyg‘ularini tushunishni o‘rganadilar. Ushbu maqolada hikoya janrini o‘rganishga qaratilgan asosiy metodlar va ularning o‘quvchilarning savodxonligini oshirishdagi ahamiyati haqida so‘z yuritamiz.

Hikoya – Badiiy adabiyotning qisqa janri bo‘lib, unda biror voqea, hodisa yoki qahramonning hayotidagi muayyan bir holat qisqacha tasvirlanadi. Hikoya odatda bir necha sahifadan oshmaydigan, qisqa, mazmunli asar bo‘lib, voqealar ketma-ketligi sodda va ravon tarzda bayon qilinadi. Unda o‘quvchiga o‘sha voqea orqali muallifning g‘oyasi, hayotiy saboq yoki o‘git yetkaziladi.

Hikoyaning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- Bir asosiy voqea hikoyada odatda bitta asosiy voqea yoki hodisa tasvirlanadi. Bu voqea tez rivojlanadi va qisqa muddatda o‘z yakuniga yetadi.
- Qahramonlar hikoyada ko‘p qahramonlar bo‘lmaydi; aksariyat hollarda asosiy e'tibor bitta yoki ikkita qahramonga qaratiladi.
- Qisqa hajm roman yoki qissaga nisbatan hikoya qisqa bo‘lib, unda voqealar tezkor va lo‘nda ifodalanadi.
- Sodda tuzilma hikoyaning boshlanish, rivojlanish va yakun qismlari bo‘ladi, bu qismlar voqealar ketma-ketligini soddalashtiradi.

Hikoyalar inson hayoti, uning his-tuyg‘ulari, orzu-umidlari, qiyinchiliklari haqida bo‘lib, o‘quvchida chuqur hissiy ta’sir uyg‘otadi.

1. Hikoya tuzilishini o‘rganish: O‘quvchilarga hikoyaning tuzilishini tushuntirish muhim bosqichdir. Hikoya odatda uch qismdan iborat bo‘ladi: “boshlanish”, “rivojlanish”, va “yakun”. Boshlanish qismida voqea sodir bo‘ladigan joy, qahramonlar va ular duch keladigan muammo tanishtiriladi. Rivojlanishda voqealar o‘zgarib, qahramonlarning muammolar bilan qanday kurashayotgani ko‘rsatiladi. Yakun qismida esa hikoya yakunlanadi, muammo hal qilinadi yoki qandaydir xulosaga kelingan bo‘ladi. O‘quvchilar hikoya tuzilishini o‘rganganida, ular keyinchalik o‘z hikoyalarini tuzishda ham mazkur tuzilishga amal qilishga o‘rganadilar.

2. Qahramonlar xarakterini tahlil qilish: Hikoyadagi asosiy qahramonlarni tahlil qilish orqali o‘quvchilar ularning xarakter xususiyatlarini tushunishni o‘rganadilar. Dars davomida qahramonlarning fe’l-atvori, ularning xatti-harakatlari va qarorlari haqida savollar berish mumkin.

Masalan, "Nega qahramon shunday qildi?" yoki "Agar sen qahramon o‘rnida bo‘lsang, qanday yo‘l tutarding?" kabi savollar o‘quvchilarning fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi va ularning o‘z hayotida ham qiyin vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilishlariga yordam beradi.

3. Tasvir va tasavvur ishlatish: Hikoyalarni tasavvur qilish orqali o‘quvchilar voqealarni "jonlantiradi". Dars davomida hikoyadagi joy va qahramonlar tasvirini tuzish mashqlari o‘tkazish o‘quchilarning hayoliy tasavvurlarini rivojlantiradi. Masalan, hikoyadagi bir sahnani o‘quvchilar rasmga chizishlari yoki uni og‘zaki tasvirlashlari mumkin. Tasvir va tasavvur yordamida hikoyani his qilish imkoniyati yanada oshadi.

Xulosa. Hikoya boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining hayotida muhim o‘rin tutadi. Ularning dunyoqarashi kengaytirib, hayotiy qadriyatlar bilan tanishtiradi. Hikoyalar dars jarayonini qiziqarli va jonli qiladi. Bolalar hikoyani tinglashni va o‘qishni yoqtiradilar.Shu orqali ular o‘qishga qiziqish uyg‘otadi va kitobxonlik madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. PF-79-sonli. 2023-yil 26-may, Toshkent sh. https://lex.uz
2. 3-sinf Ona tili va o‘qish savodxonligi O‘qituvchilar uchun qo‘llanma Toshkent-2022.
3. “O‘zbekiston barkamollik uchun “ ta’lim dasturi.